



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Yo‘ldasheva Naimaxon Ubaydullo qizi

Qo‘qon davlat universiteti

boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

+998 88 820 24 40

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni, ahamiyati va zaruriyati masalalari to‘g‘risida fikr yuritilgan, mazkur masalalar bo‘yicha mualliflarning yondashuvlari taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta‘lim, boshlang‘ich, raqamli texnologiya, o‘qitish, sifat, bilim, ko‘nikma.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль, значение и необходимость цифровых технологий в повышении качества начального образования, а также представлены подходы авторов к этим вопросам.*

Ключевые слова: *образование, элементарное, цифровые технологии, обучение, качество, знания, навыки.*

Abstract. *The article discusses the role, importance and necessity of digital technologies in improving the quality of primary education, and presents the authors' approaches to these issues.*

Key words: *education, elementary, digital technology, teaching, quality, knowledge, skills.*

KIRISH

Bugungi kunda mamalakatimiz rivojlangan davlatlar qatori raqamli davrga o‘tmoqda va bu bilan bog‘liq o‘zgarishlar aksariyat hollarda, ishlab chiqarish



sohalarida, uy-joy kommunal xo'jaligida, savdo va boshqa sohalarda aniq ko'rinmoqda. Hozirgi kunda biz o'z hayotimizning asosiy qismini virtual dunyoga o'tkazayapmiz: kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfonlar va boshqa moslamalar. Biz u yerda suhbatlashamiz, do'stlar orttiramiz, ishlaymiz, fotosuratlar almashamiz, taassurotlar, fikrlarimizni bo'lishamiz, o'yinlardan foydalanamiz, tomoshabop filmlar ko'ramiz, "like"lar bosamiz, ma'lumotlar joylashtiramiz.

Axborot resurslarining barcha toifadagi fuqarolar hayotiga-yosh bolalardan tortib, nafaqaxo'rlargacha kirib borganligi-axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyatni qiziqtirgan barcha muammolarni hal qilishga qodir degan fikrni shakllantiradi. Hozirgi kunda ta'lim tashkilotlarining aksariyat qismida ta'limni raqamlashtirish jarayoning dastlabki shakli amalga oshirilmoqda. Bu o'quvchilarning o'quv materiallariga kirishini yengillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan o'quv yuklamasini kamaytirish, o'quv intizomi va o'quv jarayoni mazmuni ustidan nazoratni osonlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu jarayon masofadan boshqarish pultini sezilarli darajada kengaytirishga imkon yaratmoqda. Bu elektron ta'limga tegishli bo'lgan yangilik turiga kiradi. Hozirgi vaqtda u o'quvchilar uchun muhim bo'lgan oflayn ta'lim xususiyatlaridan ancha past. Biroq, onlayn ta'lim bozorda o'z o'rnini egallab, tegishli xizmatlarning doimiy ravishda yaxshilanib boradigan sifatini bozorga taklif eta oladigan ta'lim tashkilotlarigina kelajakda ta'lim makonida qolish imkoniyatiga ega

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METDOLOGIYASI

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eng ustuvor vazifa sifatida ham ko'rsatilgan edi. Bu borada "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini va hayot sifatining barqaror yaxshilanishini ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish va "raqamli iqtisodiyot"ni rivojlantirish



uchun qulay muhit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan, 2020-2021 yillarda joriy etiladigan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar ro‘yxati, “Raqamli Toshkent” kompleks dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi, 2020 yilda telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish bo‘yicha loyihalar ro‘yxati, 2021- 2023 yillarda istiqbolli axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar ro‘yxati tasdiqlandi.

Dasturning asosiy vazifasi etib shahar xizmatlarini boshqarish, ijtimoiy soha ob‘ektlari, ishlab chiqarish, yo‘l transport va kommunal infratuzilmaning integratsiyalashgan axborot muhitini yaratish va keyinchalik muvaffaqiyatli tajribani respublikaning boshqa hududlarida tatbiq etish belgilandi.

Hozirgi davrda sivilizatsiya rivojlanishining bosh tendensiyalaridan biri — shaharlarda istiqomat qiluvchi aholining ko‘payishi va shahar asosiy iqtisodiy drayverlarga aylanib kelishi. Tabiiyki, shu nuqtai nazardan shaharlarda istiqomat qiluchi aholi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar yaratilishi muhim vazifadir. Va shu tarzda raqamli texnologiyalar katta ko‘mak beradi.

Raqamli texnologiyalar shaharlarni boshqarish tizimini yangi bosqichga ko‘taradi: nafaqat vaqt va mablag‘larni keskin sarflaydi, shu bilan birga keng aholini jamg‘arishga imkon yaratadi. So‘nggi yillarda dunyoda “Raqamli shahar” konsepsiyasi ommalashmoqda — o‘ta zamonaviy, yangi qiyofaga ega shahar. Agarda biz ham shaharlarimizni zamonaviy tendensiyalarga mos rivojlantirmoqchi bo‘lsak, aholi va mehmonlarimiz uchun qulay shart-sharoit yaratmoqchi bo‘lsak, mazkur masala biz uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar bilan ishlash ularni rivojlantirishga reflektiv va tanqidiy, shu bilan birga izlanuvchan, ochiq va kelajakka qaratilgan munosabatni talab qiladi. Biz aniqlagan texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantiradi, ularning mantiqiy va ijodiy fikrlashi hamda raqamli



kompetensiyasini rivojlantiradi. Taqdim etilgan raqamli texnologiyalar kasb-hunar ta'limi mutaxassislarining mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiluvchi vazifalarni to'liq bajarmoqda. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, ta'lim jarayonini raqamlashtirishda yo'l qo'yilayotgan asosiy kamchiliklar aniqlandi. Xususan, o'quvchilarning o'z-o'zidan ta'lim olishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tayyorgarligi yetarli emasligi tasdiqlanadi. ¹

Aniqlik kiritilishicha, raqamlashtirishning past darajasi metodik ta'minotning yetarli emasligi va alohida didaktik vaziyatlarda bunday texnologiyalardan foydalanish yo'llarining noto'g'ri tavsiflangani bilan bog'liq.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish mavzusi bo'yicha kutilayotgan ilmiy yangiliklar:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslanadi.

2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonining mavjud holati va bu sohadagi ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi.

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari, yo'llari, metodlari va mexanizmlari ishlab chiqiladi.

4. Nazariy qoidalar, ijtimoiy-iqtisodiy sohaning raqamli transformatsiyasini boshqarish metodologiyasi va amaliy vositalari ishlab chiqiladi.

5. Raqamli platformalarni yaratish va rivojlantirishga asoslash.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <http://agroxizmat.uz/oz-OZ/president>



МУХОКАМА VA NATIJALAR

Raqamli texnologiya mazmuni. Pedagogika fanida o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish tajribasi yuzaga kelgan. Bunda asosiy e'tibor o'qitish mazmunini yangilash, qulay vositalardan foydalanish va o'zlashtirish metodikasini takomillashtirishga qaratilganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda raqamli texnologiya mazmunida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- 1) kompyuter o'quv-texnik vositasiga tayangan o'qitish va o'zlashtirish materiallarini tayyorlash;
- 2) o'qitishning axborot-kommunikatsion didaktik ta'minotini ishlab chiqish;
- 3) o'qitish jarayonida mavjud texnik imkoniyatlardan oqilona foydalanish;
- 4) ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'quv-texnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirib borish.

Mazkur asoslar raqamli texnologiya mazmunini tashkil etadi. Bunda raqamli tushunchasini o'quv materiallarini kompyuterli dastur asosida tayyorlash va uzatish nazarda tutilishini eslatib o'tish joiz. Shu sababli keyingi paytlarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Bundan maqsad ta'lim tizimida sifatli ko'rsatkichlarga erishish va o'zlashtirish jarayonini takomillashtirishdan iborat. Raqamli texnologiyalar turlari. Boshlang'ich ta'limda qo'llanishi lozim bo'lgan raqamli texnologiyalarning bir necha turlari mavjud. Bu borada raqamli texnologiyalarning eng asosiy quyidagi turlarini eslatib o'tish joiz:

- 1) kompyuterli dasturga asoslangan o'qitish raqamli texnologiyasi;
- 2) elektron-modulli texnologiya;
- 3) masofaviy ta'lim texnologiyasi;
- 4) mustaqil ta'lim texnologiyasi;
- 5) individual yondashguv texnologiyasi;
- 6) Internet ta'limi texnologiyasi;



7) milliy portallar texnologiyasi;

8) mohir pedagoglarning shaxsiy texnologiyasi.²

Mazkur raqamli texnologiyalar turlaridan maktab muhiti va imkoniyatlariga asosan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta‘minlangan. Shu sababli boshlang‘ich ta‘limda kompyuterli dasturga asoslangan o‘qitishning raqamli texnologiyasidan foydalanish qiziqarliligi, tezkorligi va samaradorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak bo‘ladi:

a) mavzularning kompyuterli variantlarini tayyorlash;

b) kompyuterli variantlarni o‘quvchilarga taqdim etish va ulardan foydalanish bo‘yicha mexanizmlarini yaratish;

v) vertual aloqa vositasida o‘quvchilarga tegishli mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar berish;

g) tayyorlangan o‘quv materiallarini animatsion va multimediyali tasvirlarga boy tarzda taqdim etish;

d) o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish metodikasini belgilab qo‘yish.³

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta‘lim o‘quv fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarning o‘ziga xos imkoniyatlaridan biri o‘quv materiallarini yangilab borish mavjudligidir. Shu sababli keyingi paytlarda ta‘limning barcha turlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga asosiys e‘tibor qaratilmoqda.

² Ананьев И.И. Использование информационной системы для модульной организации образовательного процесса / И.И.Ана-ньев, П.И.Ананьев, А.В.Бобров // Измерение, контроль, информа-тизация. Барнаул, 2020. С. 161— 163.

³ Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения. URL: www.aqua.iefb.agtu.ru/dist/Biblio/Dissert/dissert_Andreev/br/ogl-b.htm



2023-2024 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflarda Informatika fani o'qitila boshlandi. Bu o'quv fani o'quvchilarning kompyuter savodxonligi, ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasi va texnik vositalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda [4]. Shu sababli mazkur fanni o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish mahorati bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati. Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday ahamiyatning asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim olishga qiziqtirish;
- 2) o'quv materiallarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos ravishda turli vositalar asosida tayyorlash;
- 3) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qituvchi kitobi uchun yangi metodik tavsiyalarni taqdim etish;
- 4) boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayonini yangilab borish;
- 5) o'qitish jarayoniga xorijiy mamlaktlarning tajribalarini joriy etish;
- 6) mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual tajribalarini ommalashtirish;
- 7) boshlang'ich ta'lim sifatini raqamli texnologiyalar asosida yuksaltirish.

Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz:

a) boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish;

b) boshlang'ich ta'limda samara beradigan raqamli texnologiyalarni saralash va uning majmuini amaliyot uchun taqdim etish; amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mahoratini



oshirib borish. Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini tarkib toptiradi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'qitish mazmunini yangilaydi, vaositalarini takomillashtiradi va o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini kuchaytiradi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarini qo'llash monitoringini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablari hududlardagi oliy pedagogik ta'lim muassasalariga birlashtirilgan. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish kerak.⁴

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni joriy etish boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish uchun juda muhimdir, ammo shu bilan birga ularni amalga oshirishda ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish zarur. Maktablarimizning boshlang'ich sinf darsliklariga ilova tarzida elektron multimedia darslari taqdim etilgan va ulardan dars jarayonlarida samarali foydalanilmoqda. Ta'lim makonini raqamlashtirishga o'tish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, bugungi kunda deyarli barcha o'quvchilar raqamli mahalliy avlodga mansub bo'lib, ular yangi texnologiyalarni kundalik hayotida qo'llashga katta moyilligini namoyish etishmoqda. Ayniqsa, bu IT va Internet texnologiyalariga, shuningdek ularni nafaqat professional sohada, balki ijtimoiylashuv va aloqa uchun ham qo'llashga tegishli. Nima bo'lganida ham, zamonaviy pedagogik raqamli texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning yutuqlarini kafolatlasa, keyinchalik yuqori sinflarda muvaffaqiyatli o'qishini kafolatlaydi.

⁴ Атаян А.М. Дидактические основы формирования информационно-культурной личности в условиях информатизации общества: Дис. ... д-ра пед. наук. Владикавказ, 2001.



Shunday qilib, raqamlashtirilgan ta'lim tizimidan kelajakda raqamlashgan jamiyatga kirishishi uchun maqsadli auditoriya a'zosi bo'lishi uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Bu, albatta, maktabning ta'lim bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga, qo'shimcha qiymat yaratishga va bolalarni jalb qilishga olib keladi. Bu birinchi navbatda raqobatbardoshlikni oshiradi; Ikkinchidan ta'lim jaraonini jahon standartiga moslashtiradi. Bunday sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi an'anaviy usullardan tubdan farq qiladi, bu globallashtirilgan axborot makonida uni maktabgacha boshlang'ich ta'lim integratsiyasida tatbiq qilishning sifat jihatidan yangi modelini ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bo'lgan va ularga mos keladigan mutlaqo yangi usullarini o'zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi. Nima bo'lganida ham, zamonaviy pedagogik raqamli texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning yutuqlarini kafolatlaydi va keyinchalik yuqori sinflarda muvaffaqiyatli o'qishini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <http://agroxizmat.uz/oz-OZ/president>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-fevraldagi 66-son qarori
3. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
4. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim). - Toshkent, 2017
5. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. qo'qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. qo'qon universiteti xabarnomasi, 661-663.



7. Ананьев И.И. Использование информационной системы для модульной организации образовательного процесса / И.И.Ана-ньев, П.И.Ананьев, А.В.Бобров // Измерение, контроль, информа-тизация. Барнаул, 2020. С. 161—163.
8. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обу-чения. URL: [www.aqua.iefb.agtu.ru/dist/Biblio/Dissert/dissert_Andreev/ br/ogl-b.htm](http://www.aqua.iefb.agtu.ru/dist/Biblio/Dissert/dissert_Andreev/br/ogl-b.htm)
9. Атаян А.М. Дидактические основы формирования инфор-мационной культуры личности в условиях информатизации об-щества: Дис. ... д-ра пед. наук. Владикавказ, 2001.
10. Виссема Й. (2016). Университет третьего поколения. Управление университетом в переходный период / Й. Виссема. - М.: Олимп-Бизнес.